

KASBIY STANDART
Moliyaviy tahlil va xaridlar boshqaruvi sohasi

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart Kredit xizmati xodimi, Texnik xaridlar bo'yicha mutaxassis, Xaridlar bo'yicha agent, Moliyaviy tahlilchi, Moliyaviy xavflar tahlilchisi (Analitik) va Xaridlarni tashkil bo'yicha mutaxassis kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

debitor va kreditor qarzlari – tashkilotning boshqa shaxslardan olinadigan (debitor) va ularga to'lanadigan (kreditor) moliyaviy majburiyatlari;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

xaridlar boshqaruvi – tashkilotning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayonlarini tashkil qilish va nazorat qilish.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2);

Mashg'ulotlar milliy klassifikatori (MMK-2025)" milliy standarti (O'zMSt 641:2025-son bilan ro'yxatdan o'takazilgan);

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (2021-yildagi tahrir).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

KS – Kasbiy standart.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Moliyaviy tahlil va xaridlar boshqaruvi sohasi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Tashkilotning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish, debitor va kreditor qarzlarni samarali boshqarish, hisob-kitob va kassa operatsiyalarini yuritish, xaridlar jarayonlarini samarali tashkil etish orqali moliyaviy barqarorlik va xavflarni kamaytirishni ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	N seksiya Professional, ilmiy va texnik faoliyat 69 – Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat 69.2 – Buxgalterlik hisobi va audit sohasidagi faoliyat; soliq solish bo'yicha maslahat berish 69.20 – Buxgalterlik hisobi va audit sohasidagi faoliyat; soliq solish bo'yicha maslahat berish 69.20.1 – Buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu standart moliyaviy tahlil, ishlab chiqarish (real) sektori, xizmat ko'rsatish sektori, infratuzilma va yordamchi sohalarda, budjet tashkilotlarida debitor va kreditor qarzlarni boshqarish, hisob-kitob va kassa operatsiyalari, xaridlarni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning vazifalari, ko'nikmalari va bilimlarini tavsiflaydi. Kasbiy faoliyat tashkilotning moliyaviy natijalarini yaxshilash, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMRdagi malaka darajasi:
		43129007 - Kredit xizmati xodimi	4
		33231002 - Texnik xaridlar bo'yicha mutaxassis	5
		33231004 - Xaridlar bo'yicha agent	5
		33231007 - Xaridlarni tashkil bo'yicha mutaxassis	5
		24131002 - Moliyaviy tahlilchi	6
		24131004 - Moliyaviy xavflar tahlilchisi (Analitik)	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	43129007 Kredit xizmati xodimi	A1.4	Kredit qarzlari boshqarish	A1.01.4	Kredit qarzlari ro'yxatga olish va kuzatish
				A1.02.4	Qarzlarni bo'yicha to'lovlarni muvofiqlashtirish
		A2.4	Qarzlarni bo'yicha hujjatlarni yuritish	A2.01.4	Qarzlarni bilan bog'liq hujjatlarni tayyorlash
				A2.02.4	Hujjatlarni tekshirish va arxivlash
2	33231002 Texnik xaridlar bo'yicha mutaxassis	B1.5	Texnik xarid jarayonlarini tashkil etish	B1.01.5	Xarid ehtiyojlarini aniqlash va texnik talablarni shakllantirish
				B1.02.5	Bozor tahlilini o'tkazish va yetkazib beruvchilarni tanlash
		B2.5	Shartnomaviy va moliyaviy jarayonlarni boshqarish	B2.01.5	Xarid shartnomalarini tayyorlash va huquqiy jihatdan kelishish
				B2.02.5	To'lov hujjatlarini tayyorlash va moliyaviy hisob-kitobni nazorat qilish
3	33231004 Xaridlar bo'yicha agent	D1.5	Xaridlar jarayonini muvofiqlashtirish	D1.01.5	Xaridlar bo'yicha ta'minotchilar bilan muloqot qilish
				D1.02.5	Xarid shartnomalarini tayyorlash
		D2.5	Xaridlarni rejalashtirish	D2.01.5	Xaridlar ehtiyojlarini aniqlash
				D2.02.5	Xaridlar budjetini shakllantirish
4		E1.5	Xaridlar strategiyasini ishlab chiqish	E1.01.5	Xaridlar bo'yicha strategik reja tuzish

	33231007 Xaridlarni tashkil bo'yicha mutaxassis			E1.02.5	Ta'minotchilar bilan muzokaralar olib borish
		E2.5	Xaridlar jarayonini nazorat qilish	E2.01.5	Xaridlar samaradorligini tahlil qilish
				E2.02.5	Xaridlar bo'yicha xavflarni boshqarish
5	24131002 Moliyaviy tahlilchi	F1.6	Moliyaviy strategiyani ishlab chiqish	F1.01.6	Tashkilotning moliyaviy strategiyasini shakllantirish
				F1.02.6	Investitsiyalarni tahlil qilish va baholash
		F2.6	Moliyaviy xavflarni boshqarish	F2.01.6	Moliyaviy xavflarni aniqlash va tahlil qilish
				F2.02.6	Xavflarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish
6	24131004 Moliyaviy xavflar tahlilchisi (Analitik)	G1.6	Moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish	G1.01.6	Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish
				G1.02.6	Moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash
		G2.6	Moliyaviy prognozlarni ishlab chiqish	G2.01.6	Moliyaviy prognozlar tuzish
				G2.02.6	Xavflarni tahlil qilish va tavsiyalar berish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Kredit xizmati xodimi	
Mashg'ulot nomining kodi:	43129	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 6 oy moliyaviy hisob-kitob, buxgalteriya yoki qarzlar boshqaruvi sohasida ish tajribasi talab qilinadi. Ish tajribasi bo'lmagan nomzodlar uchun 1 yilgacha amaliyot yoki stajirovka o'tash imkoniyati mavjud.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki qonuniy ish ruxsatnomasiga ega shaxslar, 18 yoshdan yuqori. Jinsi bo'yicha cheklovlar yo'q; Kompyuterda uzoq vaqt ishlashga muvofiq sog'liq holati (ko'rish va diqqat-e'tibor bilan bog'liq muammolar bo'lmasligi); Diqqat-e'tiborning yuqori darajasi va xatolarni kamaytirish qobiliyati; Vazifalarni mustaqil ravishda rejalashtirish va belgilangan muddatlarda bajarish; Buxgalteriya va moliyaviy tizimlarni tez o'zlashtirish; Qarzlar bo'yicha noaniqliklarni aniqlash va tuzatishda tashabbuskorlik; Jamoadagi ishlash va muloqot ko'nikmalari, rahbar va hamkasblar bilan samarali hamkorlik; Stressga chidamlilik hamdayuqori hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda barqarorlik.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) o'rta professional ta'lim 2) umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Buxgalteriya va moliyaviy hisob bo'yicha maxsus treninglar (masalan, 1C:Buxgalteriya, IFRS asoslari). Akkreditatsiyalangan o'quv markazlari tomonidan tashkil etiladigan qisqa muddatli kurslar (masalan, "Kredit qarzlarini boshqarish"). Ish joyida o'qish (informal ta'lim): tajribali mutaxassislar rahbarligida amaliy ko'nikmalar o'rtirish.	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Moliyaviy masalalar bo'yicha kichik mutaxassis	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	24131004 - Moliyaviy xavflar tahlilchisi (Analitik)

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.4 - Kredit qarzlari boshqarish	A1.01.4 - Kredit qarzlari ro'yxatga olish va kuzatish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Debitor va kreditor qarzlari bo'yicha to'lov shartnomalarini tizimga kiritish.
		2. Qarzdorlarning to'lov jadvallari yaratish va muntazam yangilab borish.
		3. To'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilganini kuzatish uchun moliyaviy tizimlarda monitoring o'tkazish.
		4. Muddati o'tgan qarzlarini aniqlash va ular bo'yicha xabarnomalar tayyorlash.
		5. Debitor va kreditorlar bilan bog'liq ma'lumotlarni buxgalteriya tizimida (masalan, 1C) to'g'rilash.
		6. To'lovlar tarixini yuritish va ularning to'g'riligini tekshirish.
		Ko'nikmalar:
		Buxgalteriya dasturlari (1C, QuickBooks, SAP) bilan ishlash ko'nikmasi
		Microsoft Excelda ma'lumotlarni tahlil qilish va jadval tuzish
		Elektron tizimlarda (CRM, ERP) qarzlarni ro'yxatga olish va kuzatish
		Moliyaviy ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va xatolarni tuzatish
		To'lov jadvallari boshqarish va optimizatsiya qilish
		Muddati o'tgan qarzlar bo'yicha xabarnomalarni avtomatik tarzda yuborish ko'nikmasi
		Bilimlar:
		Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari (O'zbekiston va IFRS standartlari)
		Debitor va kreditor qarzlari boshqarish qoidalari va jarayonlari
		Moliyaviy hujjatlar (hisob-faktura, to'lov topshiriqlari) bilan ishlash asoslari
		O'zbekistonda moliyaviy to'lovlarni amalga oshirish qonunchiligi
		Elektron moliyaviy tizimlar (1C, SAP) va ularning funktsionalligi
		Moliyaviy ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi talablari

	A1.02.4 - Qarzlarni bo'yicha to'lovlarni muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Debitorlar bilan to'lov muddatlari bo'yicha muloqot qilish va kelishuvlarga erishish;
		2. Kreditorlarga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun to'lov topshiriqlarini tayyorlash;
		3. To'lovlarning bank tizimlari orqali o'tishini kuzatish va tasdiqlash;
		4. Debitorlardan to'lovlarning kechikishi sabablarini aniqlash va rahbariyatga xabar berish;
		5. To'lovlar bo'yicha noaniqliklarni hal qilish uchun taraflar bilan muzokara olib borish;
		6. To'lovlarning muntazamligini ta'minlash uchun eslatma xatlarini yuborish.
		Ko'nikmalar:
		Debitor va kreditorlar bilan samarali muloqot qilish va muzokara olib borish
		Bank tizimlari (internet-banking, SWIFT) orqali to'lovlarni amalga oshirish
		To'lovlar bo'yicha noaniqliklarni tezkor hal qilish va muvofiqlashtirish
		Moliyaviy tizimlarda to'lovlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish
		To'lov jadvallarini boshqarish va muddatlarga rioya qilish
		Elektron pochta va CRM tizimlari orqali xabar almashish ko'nikmasi
		Bilimlar:
		Moliyaviy to'lovlarni muvofiqlashtirish jarayonlari va qoidalar
		O'zbekistonda bank operatsiyalari va valyuta boshqaruvi qonunchiligi
		Debitor va kreditorlar bilan shartnomaviy munosabatlar asoslari
		Moliyaviy risklarni aniqlash va ularning oldini olish usullari
		Moliyaviy tizimlarda to'lovlarni kuzatish va hisobga olish prinsiplari
		Maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha korporativ standartlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. To'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi va qarzlarning to'g'ri ro'yxatga olinishiga mas'ul bo'lish;
		2. Oddiy vazifalarni (to'lovlarni ro'yxatga olish, eslatma yuborish) mustaqil ravishda bajarish;

		3. Noaniqliklarni aniqlashda tashabbuskorlik ko'rsatish va rahbarga xabar berish;
		4. Moliyaviy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashga mas'ul bo'lish;
		5. Rahbar ko'rsatmalari asosida murakkab to'lov masalalarini muvofiqlashtirish.
A2.4 - Qarzar bo'yicha hujjatlarni yuritish	A2.01.4 - Qarzar bilan bog'liq hujjatlarni tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Debitor va kreditor qarzlari bo'yicha hisob-fakturalarni tayyorlash
		2. To'lov topshiriqlari va shartnomalarni rasmiylashtirish
		3. To'lovlar bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlarni (aktlar, kvitansiyalar) shakllantirish
		4. Moliyaviy hujjatlarni buxgalteriya tizimiga kiritish va to'g'rilash
		5. Debitorlarga to'lov eslatmalarini tayyorlash va yuborish
		6. Qarzar bo'yicha hisobotlar uchun zarur ma'lumotlarni yig'ish va tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Moliyaviy hujjatlarni (hisob-faktura, to'lov topshirig'i) tayyorlash va rasmiylashtirish
		1S, SAP yoki QuickBooks kabi buxgalteriya dasturlarida hujjatlarni yuritish
		Microsoft Word va Excelda hujjatlarni formatlash va jadvallar tuzish
		Hujjatlarning to'g'riligini tekshirish va xatolarni tuzatish
		Elektron dokument aylanishi tizimlarida (masalan, E-Invoicing) ishlash
		Hujjatlarni standartlarga muvofiq tayyorlash va kelishish ko'nikmasi
		Bilimlar:
		Buxgalteriya hujjatlarini yuritish qoidalari (O'zbekiston va IFRS standartlari)
		Moliyaviy hujjatlarning turlari va ularning maqsadi
		O'zbekistonda buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik
		Elektron dokument aylanishi va uning qonuniy talablari
		Moliyaviy ma'lumotlarni tasniflash va saqlash prinsiplari
		Korporativ moliyaviy siyosat va standartlar

	A2.02.4 - Hujjatlarni tekshirish va arxivlash	Mehnat harakatlari:
		1. Tayyorlangan moliyaviy hujjatlarning to'g'riligini tekshirish
		2. Hujjatlardagi noaniqliklarni aniqlash va tuzatish
		3. Moliyaviy hujjatlarni elektron va qog'oz shaklda arxivlash
		4. Arxivlangan hujjatlarni tezkor topish uchun tasniflash va indekslash
		5. Audit va tekshiruvlar uchun zarur hujjatlarni tayyorlash
		6. Saqlash muddati o'tgan hujjatlarni yo'q qilish jarayonini muvofiqlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Moliyaviy hujjatlarning to'g'riligini tekshirish va tahlil qilish
		Elektron arxiv tizimlari (Document Management Systems) bilan ishlash
		Hujjatlarni tasniflash va indekslash usullarini qo'llash
		Audit tekshiruvlari uchun hujjatlarni tezkor tayyorlash
		Ma'lumotlar bazalarida hujjatlarni qidirish va boshqarish
		Hujjatlarni saqlash va yo'q qilish bo'yicha korporativ siyosatga rioya qilish
		Bilimlar:
	Mas'uliyat mustaqillik: va	Hujjatlarni arxivlash va saqlash bo'yicha O'zbekiston qonunchiligi
		Elektron va qog'oz arxivlash tizimlarining ishlash prinsiplari;
		Moliyaviy hujjatlarni tekshirish va tasdiqlash jarayonlari;
		Audit va moliyaviy tekshiruvlar talablari;
		Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik qoidalari;
		Korporativ dokument aylanishi standartlari (ISO 15489).
		1. Tayyorlangan va arxivlangan hujjatlarning to'g'riligi va qonunga muvofiqligiga mas'ul bo'lish;
		2. Oddiy hujjatlarni tayyorlash va tekshirishni mustaqil ravishda amalga oshirish;
		3. Hujjatlardagi xatolarni aniqlashda tashabbuskorlik ko'rsatish va rahbarga xabar berish;
		4. Arxivlangan ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash;
		5. Murakkab hujjatlarni rahbar yoki auditor bilan kelishilgan holda tayyorlash.
Texnik va/yoki texnologik talab		1.Kompyuter va ofis texnikasi (printer, skaner) bilan ishlash imkoniyati. 2.1C:Buxgalteriya, SAP yoki QuickBooks kabi buxgalteriya dasturlariga ega bo'lish.

	3. Microsoft Office (Excel, Word) va PDF redaktorlarida ishlash uchun zarur ta'minot. 4. Elektron dokument aylanishi tizimlari (E-Invoicing, Document Management Systems) ga ulanish. 5. Yuqori tezlikdagi internet va xavfsiz ma'lumotlar bazasiga ega korporativ tarmoq. 6. Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun antivirus va shifrlash texnologiyalari.
--	--

LOYIHA

Kasbning nomi:	Texnik xaridlar bo'yicha mutaxassis	
Mashg'ulot nomining kodi:	33231	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1 yillik ish tajribasi talab qilinadi Talabgorlar uchun stajirovka yoki amaliy mashg'ulotlar talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki ishga ruxsatnomasi mavjud shaxs 18 yoshdan yuqori (yuridik mas'uliyat yoshi) Jins bo'yicha cheklovlar yo'q Yuqori diqqat va stressga chidamlilik talab qilinadi. Ko'rish va motor funksiyalari normal bo'lishi kerak. Moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirishda aniqlik va diqqat Naqd pul va bank terminallari bilan ishlash ko'nikmasi Muammolarni tezkor hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyati Xizmat ko'rsatishda xushmuomalalik va muloqot ko'nikmasi Kompyuter va maxsus dasturiy ta'minotlar (masalan, 1C, bank tizimlari) bilan ishlash	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) o'rta maxsus professional ta'lim 2) boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Kasbga doir maxsus kurslar, treninglar yoki sertifikatlar (masalan, kassa apparati bilan ishlash, moliyaviy xavfsizlik) Ish jarayonida o'rganilgan tajriba va ko'nikmalar (masalan, bank tizimlari bilan ishlash)	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Xaridlarni tashkil etish bo'yicha mutaxassis	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	33231004 - Xaridlar bo'yicha agent

Mehnat funksiyalarining tavsifi

Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5 - Texnik xarid jarayonlarini tashkil etish	B1.01.5 - Xarid ehtiyojlarini aniqlash va texnik talablarni shakllantirish	O'qitish natijalari:
		Mehnat harakatlari:
		1. Mijozlardan naqd pul qabul qilish va tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish
		2. Bank terminallari orqali to'lovlarni amalga oshirish va tranzaksiyalarni ro'yxatdan o'tkazish

		3. Naqd pulning aniqligini tekshirish va qalbaki pullarni aniqlash
		4. Valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish va kurslarni kuzatish
		5. Bank kartasi operatsiyalarini tekshirish va xavfsizligini ta'minlash
		6. Kunlik naqd pul va bank operatsiyalari bo'yicha hisobotlar tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Naqd pul va bank terminallari bilan tez va aniq ishlash
		Moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshirishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Mijozlar bilan muloqotda xushmuomalalik va professionallikni saqlash
		Kalta muddatli muammolarni tezkor hal qilish va qaror qabul qilish
		Kompyuter va maxsus dasturiy ta'minotlar (masalan, bank tizimlari) bilan ishlash
		Valyuta ayirboshlash va naqd pul operatsiyalarining qonunchilik talablarini bilish
		Bilimlar:
		Naqd pul va bank operatsiyalarining qonunchilik asoslari
		Bank terminallari va to'lov tizimlarining ishlash prinsiplar
		Moliyaviy xavfsizlik va qalbaki pullarni aniqlash usullari
		Valyuta operatsiyalari va ularning hisobga olish tartibi
		Mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlari va etika qoidalari
		Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tahlil qilish asoslari
	B1.02.5 - Bozor tahlilini o'tkazish va yetkazib beruvchilarni tanlash	Mehnat harakatlari:
		1. Mijozlarning to'lovlarini qabul qilish va tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish
		2. To'lovlarning to'g'riligini tekshirish va xatolarni aniqlash
		3. Elektron to'lov tizimlari orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish
		4. To'lovlarning kunlik va oylik hisobotini yuritish
		5. To'lovlar bo'yicha mijozlardan kelib tushgan savollarga javob berish
		Ko'nikmalar:
		Elektron to'lov tizimlari (masalan, Payme, Uzcard) bilan ishlash

		To'lov operatsiyalarini tez va aniq amalga oshirish
		Moliyaviy xatolarni aniqlash va tuzatish
		Mijozlar bilan murakkab vaziyatlarda muloqot qilish
		Moliyaviy tranzaksiyalarning xavfsizligini ta'minlash
		To'lovlar bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va tahlil qilish
		Bilimlar:
		Elektron to'lov tizimlarining ishlash mexanizmlari
		To'lov operatsiyalarining qonunchilik talablari
		Moliyaviy tranzaksiyalarni hisobga olish va nazorat qilish usullari
		Mijozlarga xizmat ko'rsatish va muloqot standartlari
		Moliyaviy xavflarni boshqarish asoslari
		To'lovlar bo'yicha hisobot tayyorlash va taqdim etish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. To'lov operatsiyalarining aniqligi va xavfsizligi uchun shaxsiy mas'uliyat;
		2. Mijozlar ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash;
		3. To'lovlar bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish;
		4. Moliyaviy xatolarning oldini olish va tuzatish uchun tashabbuskorlik;
		5. To'lov tizimlarida nosozliklarni aniqlash va rahbariyatga xabar berish;
		6. Kunlik to'lovlar hisobotini mustaqil ravishda tayyorlash va taqdim etish.
B2.5 - Shartnomaviy va moliyaviy jarayonlarni boshqarish	B2.01.5 - Xarid shartnomalarini tayyorlash va huquqiy jihatdan kelishish	Mehnat harakatlari:
		1. Kassaviy operatsiyalar bo'yicha qabul va chiqim orderlarini rasmiylashtirish
		2. Naqd pul va to'lovlar bo'yicha hujjatlarni to'ldirish va ro'yxatdan o'tkazish
		3. Kassa kitobini yuritish va operatsiyalarni ro'yxatga olish

		4. Hujjatlarning to'g'riligini tekshirish va xatolarni tuzatish 5. Kassa operatsiyalari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yangilanglar 6. Kassaviy hujjatlarni arxivizatsiya qilish va saqlash Ko'nikmalar: Kassa hujjatlarini to'ldirishda aniqlik va tezkorlik Moliyaviy hujjatlar bilan ishlashda qonunchilik talablariga rioya qilish Kompyuterda maxsus dasturiy ta'minotlar (masalan, 1C) bilan ishlash Hujjatlarning to'g'riligini tekshirish va xatolarni aniqlash Kassa kitobini yuritish va operatsiyalarni ro'yxatga olish Hujjatlarni arxivizatsiya qilish va saqlash tartibini bilish Bilimlar: Kassa operatsiyalarini hujjatlashtirishning qonunchilik asoslari Moliyaviy hujjatlarni to'ldirish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi Kassa kitobini yuritish va hisobga olish qoidalari Elektron ma'lumotlar bazalari bilan ishlash asoslari Moliyaviy hujjatlarni arxivizatsiya qilish va saqlash talablari Moliyaviy xavfsizlik va ma'lumotlarning maxfiyligi qoidalari
	B2.02.5 - To'lov hujjatlarini tayyorlash va moliyaviy hisob-kitobni nazorat qilish	Mehnat harakatlari: 1. Kunlik kassa hisobotini tayyorlash va ro'yxatdan o'tkazish 2. Naqd pul va to'lovlar bo'yicha hisobotlarni tahlil qilish 3. Kassa operatsiyalari bo'yicha oylik va choraklik hisobotlarni tayyorlash 4. Hisobotlardagi xatolarni aniqlash va tuzatish 5. Kassa hisobotlarini rahbariyatga taqdim etish 6. Kassa hisobotlarini elektron tizimlarda saqlash va yangilanglar Ko'nikmalar: Kassa hisobotlarini tayyorlashda aniqlik va tezkorlik Moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish va xatolarni aniqlash Kompyuterda maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ishlash

		Hisobotlarni rasmiylashtirish va taqdim etish
		Moliyaviy hisobotlarning qonunchilik talablariga rioya qilish
		Ma'lumotlarni elektron tizimlarda saqlash va boshqarish
		Bilimlar:
		Kassa hisobotlarini tayyorlash va tahlil qilish qoidalari
		Moliyaviy hisobga olishning umumiy prinsiplari
		Hisobotlarni rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi
		Moliyaviy ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi
		Elektron tizimlar va dasturiy ta'minotlar bilan ishlash asoslari
		Moliyaviy hisobotlar bo'yicha qonunchilik talablari
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Kassa hisobotlarining aniqligi va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun mas'uliyat;	
	2. Moliyaviy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;	
	3. Hisobotlardagi xatolarni mustaqil ravishda aniqlash va tuzatish;	
	4. Kassa operatsiyalari bo'yicha qaror qabul qilishda tashabbuskorlik;	
	5. Rahbariyatga hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etish;	
	6. Kassa hisobotlarini elektron tizimlarda mustaqil ravishda boshqarish.	
Texnik va/yoki texnologik talab	1. Naqd pul bilan ishlash uchun kassa apparati va uning dasturiy ta'minoti bilan ishlash ko'nikmasi;	
2. Bank terminallari (POS-terminallar) va ularning to'lov tizimlari bilan ishlash imkoniyati;		
3. Elektron to'lov tizimlari (masalan, Uzcard, Humo, Payme) bilan integratsiya qilingan dasturiy ta'minotlar;		
4. Moliyaviy operatsiyalarni hisobga olish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar (masalan, 1C, bank tizimlari);		
5. Kompyuter va ofis texnikasi (printer, skaner) bilan ishlash imkoniyati;		
6. Internetga ulanish va ma'lumotlarni xavfsiz uzatish uchun zamonaviy aloqa vositalari.		

Kasbning nomi:	Xaridlar bo'yicha agent	
Mashg'ulot nomining kodi:	33231	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Logistika yoki savdo sohasida 1-2 yillik ish tajribasi talab qilinadi Yangi boshlovchilar uchun stajirovka yoki amaliy mashg'ulotlar talab etiladi Aniq talablar ish beruvchi tomonidan belgilanadi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki ishga ruxsatnomasi mavjud shaxs Odatda 18 yoshdan yuqori (yuridik mas'uliyat yoshi) Jins bo'yicha cheklovlar yo'q Yuqori diqqat, stressga chidamlilik va uzoq vaqt ishlash qobiliyati talab qilinadi Ta'minotchilar bilan samarali muzokara olib borish ko'nikmasi. Bozor tahlili va narxlarni taqqoslash qobiliyati Vaqtni boshqarish va vazifalarni ustuvorlik asosida bajarish Muammolarni tezkor hal qilish va qaror qabul qilish Jamoadi ishlash va muloqot ko'nikmalari Kompyuter va maxsus dasturiy ta'minotlar (masalan, ERP tizimlari) bilan ishlash	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) o'rta maxsus professional ta'lim 2) boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Xaridlar, logistika yoki muzokaralar bo'yicha maxsus kurslar, treninglar yoki sertifikatlar (masalan, ta'minot zanjiri boshqaruvi) Ish jarayonida o'rganilgan tajriba va ko'nikmalar (masalan, ta'minotchilar bilan ishlash, bozor tahlili)	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	33231007 - Xaridlarni tashkil etish bo'yicha mutaxassis

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.5 - Xaridlar jarayonini muvofiqlashtirish	D1.01.5 - Xaridlar bo'yicha ta'minotchilar bilan muloqot qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ta'minotchilar bilan xarid shartlari bo'yicha muzokaralar olib borish;
		2. Ta'minotchilardan tovarlar va xizmatlar bo'yicha takliflar so'rash;
		3. Ta'minotchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini muvofiqlashtirish;
		4. Ta'minotchilarning ishonchliligi va sifatini baholash;
		5. Ta'minotchilar bilan muloqotda xat va elektron xabarlarni yuritish;
		6. Ta'minotchilar bilan munosabatlarda nizolarni hal qilish.
		Ko'nikmalar:
		Samarali muzokara olib borish va manfaatli shartlarga erishish;
		Ta'minotchilar bilan professional muloqot qilish;
		Bozor tahlili va ta'minotchilarning takliflarini taqqoslash;
		Nizolarni konstruktiv hal qilish va munosabatlarni saqlash;
		Elektron xat almashuv va CRM tizimlari bilan ishlash;
		Xaridlar jarayonida vaqtni samarali boshqarish.
		Bilimlar:
		Xaridlar bo'yicha muzokaralarning asosiy prinsiplari;
		Ta'minot zanjiri boshqaruvi va ta'minotchilar bilan ishlash qoidalari;
		Bozor tahlili va narxlarni baholash usullari;
		Shartnoma huquqi va xaridlar bo'yicha qonunchilik talablari;
		Xaridlar jarayonida xavflarni boshqarish asoslari;
		CRM va xaridlarni boshqarish dasturiy ta'minotlari bilan ishlash.
	D1.02.5 - Xarid shartnomalarini tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Xarid shartnomalarining loyihalarini tayyorlash va muvofiqlashtirish;
		2. Shartnomalardagi shartlar va narxlarni ta'minotchilar bilan kelishish;
		3. Shartnomalarning qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshirish;
		4. Shartnomalarni imzolash va ro'yxatdan o'tkazish jarayonini tashkil qilish;

		5. Shartnomalar bo'yicha ma'lumotlarni maxsus tizimlarda saqlash; 6. Shartnomalarning bajarilishini kuzatish va hisobot tayyorlash. Ko'nikmalar: Shartnomalarni tayyorlashda yuridik va moliyaviy terminologiya bilan ishlash; Shartnoma shartlarini tahlil qilish va xavflarni aniqlash; Ta'minotchilar bilan shartnoma bo'yicha muloqot qilish; Shartnomalarni elektron tizimlarda boshqarish va ro'yxatdan o'tkazish; Vaqtni samarali boshqarish va shartnomalarni o'z vaqtida tayyorlash; Shartnomalar bajarilishini kuzatish va nazorat qilish. Bilimlar: Shartnoma huquqi va xaridlar bo'yicha qonunchilik asoslari; Xarid shartnomalarini tayyorlash va rasmiylashtirish tartibi; Moliyaviy va yuridik xavflarni baholash usullari; Shartnomalarni boshqarish uchun elektron tizimlar bilan ishlash; Xaridlar jarayonida narxlar va shartlarni muvofiqlashtirish; Shartnomalar bajarilishi bo'yicha hisobot tayyorlash qoidalari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Shartnomalarning qonunchilik talablariga muvofiqligi uchun mas'uliyat; 2. Shartnomalarning o'z vaqtida tayyorlanishi va imzolanishini ta'minlash; 3. Ta'minotchilar bilan shartnoma shartlari bo'yicha mustaqil muzokara olib borish; 4. Shartnomalardagi xavflarni aniqlash va rahbariyatga xabar berish; 5. Shartnomalar ma'lumotlarining maxfiyligini saqlash; 6. Shartnomalar bajarilishi bo'yicha mustaqil ravishda hisobot tayyorlash.
D2.5 - Xaridlarni rejalashtirish	D2.01.5 - Xaridlar ehtiyojlarini aniqlash	Mehnat harakatlari: 1. Tashkilotning xarid ehtiyojlarini aniqlash uchun bo'limlar bilan muloqot qilish; 2. Tovarlar va xizmatlar bo'yicha talablarni tahlil qilish va ro'yxat tuzish;

		3. Xarid ehtiyojlarining ustuvorligini aniqlash va rejalashtirish;
		4. Bozor sharoitlarini o'rganish va ehtiyojlarga muvofiq takliflar topish;
		5. Xarid ehtiyojlari bo'yicha ma'lumotlarni maxsus tizimlarga kiritish;
		6. Ehtiyojlar bo'yicha rahbariyatga hisobotlar taqdim etish.
		Ko'nikmalar:
		Tashkilot ehtiyojlarini aniqlashda tahliliy fikrlash;
		Bo'limlar bilan muloqot qilish va talablarni muvofiqlashtirish;
		Bozor tahlili va ehtiyojlarga muvofiq takliflarni topish;
		Xaridlarni rejalashtirishda vaqt va resurslarni boshqarish;
		Elektron tizimlarda ehtiyojlarni ro'yxatga olish va boshqarish;
		Ehtiyojlar bo'yicha hisobotlar tayyorlash va taqdim etish.
		Bilimlar:
		Xaridlarni rejalashtirish va ehtiyojlarni aniqlash usullari;
		Bozor tahlili va narxlarni baholash asoslari;
		Tashkilotning ichki talablari va xarid jarayonlari;
		Xaridlar bo'yicha qonunchilik va me'yoriy talablar;
		Elektron tizimlar va xaridlarni boshqarish dasturiy ta'minotlari;
		Xarid ehtiyojlari bo'yicha hisobot tayyorlash tartibi.
	D2.02.5 - Xaridlar budjetini shakllantirish	Mehnat harakatlari:
		1. Xaridlar uchun budjetni hisoblash va rejalashtirish;
		2. Tovarlar va xizmatlar narxlarini tahlil qilish va budjetga kiritish;
		3. Budjetni optimallashtirish uchun ta'minotchilar bilan muzokara olib borish;
		4. Budjetning tasdiqlanishi uchun rahbariyatga taqdimotini tayyorlash;
		5. Budjet bajarilishini kuzatish va xarajatlarni nazorat qilish;
		6. Budjet bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish.
		Ko'nikmalar:
		Budjetni rejalashtirishda moliyaviy tahlil qilish;
		Narxlarni taqqoslash va budjetni optimallashtirish;
		Ta'minotchilar bilan narxlar bo'yicha muzokara olib borish;
